WORLD FORUM ON ACADEMIC INNOVATION AND DIGITAL LITERACY

Til va Mentallik munosabatlarining lingvistik asoslari

Isakova Dilafruz Faxridinovna

dilyaisakova25@gmail.com

MENTALLIK TUSHUNCHASI KO‘PINCHA JAMIYAT YOKI XALQNING KOLLEKTIV TAFAKKURI, TARIXIY TAJRIBASI VA DUNYONI ANGLASH USULLARINI IFODALOVCHI KOMPLEKS FENOMEN SIFATIDA TALQIN QILINADI. SHU SABABLI MENTALLIKNI O‘RGANISH NAFAQAT IJTIMOIY-MADANIY JARAYONLARNI, BALKI TIL ORQALI IFODALANADIGAN KONSEPTUAL TIZIMLARNI HAM TAHLIL QILISHNI TALAB QILADI. ZAMONAVIY GUMANITAR FANLARDA MENTALLIK YOKI MENTALITET TUSHUNCHASI INSON TAFAKKURI, DUNYOQARASHI VA IJTIMOIY TAJRIBASINI IFODALOVCHI MUHIM ILMIY KATEGORIYALARDAN BIRI SIFATIDA QARALADI. USHBU TUSHUNCHA TARIX, FALSAFA, SOTSIOLOGIYA, PSIXOLOGIYA HAMDA TILSHUNOSLIK KABI TURLI FANLAR KESISHGAN NUQTADA SHAKLLANGAN BO‘LIB, INSONNING BORLIQNI IDROK ETISH MODELI, QADRIYATLAR TIZIMI HAMDA MADANIY STEREOTIPLARINI O‘ZIDA MUJASSAM ETADI.

“Mentallik” termini ilmiy muomalaga dastlab Yevropa tarixshunosligi doirasida kirib kelgan. Ayniqsa fransuz tarixiy maktabi vakillari ushbu tushunchani jamiyatning tarixiy rivojlanishi jarayonida shakllangan kollektiv ong shakli sifatida talqin qilganlar.

Etnik mentalitetning shakllanishi, tarixiy rivojlanishi hamda uning moddiy va ma’naviy jihatdan boyish manbalari bevosita til omili bilan bog‘liqdir. Har bir xalqning o‘ziga xos dunyo idroki, qadriyatlar tizimi va fikrlash tarzi uning lingvistik dunyoqarashida ya‘ni tilning lisoniy manzarasida o‘z aksini topadi. Shu sababli, milliy

mentalitet va lingvistik dunyoqarash bir-birini taqozo etuvchi hamda to‘ldiruvchi uzviy tushunchalar hisoblanadi.

Ilmiy va gumanitar fanlar tizimida "mentalitet" tushunchasining shakllanish tarixida ilk marotaba fransuz gumanitar fanlar metodologiyasiga XIX asrning o‘rtalarida, aniqrog‘i 1856-yilda amerikalik mutafakkir R. Emerson asarlari ta’sirida kirib kelgan.

Keyinchalik mazkur tushuncha adabiyot va tilshunoslikda neologizm sifatida tan olinib, mashhur fransuz yozuvchisi M. Prust tomonidan o‘z davrining lug‘at fondiga kiritilgan va ilmiy tadqiqotlarda faol foydalanib boshlangan.

Milliy mentalitet va shaxs mentalitetini muammoli o‘rganish fransuz Annallar maktabi doirasida boshlandi. Ijtimoiy fanlardagi madaniy-antropologik va tarixiy-psixologik yondashuvlar tarafdorlari M. Bloch, L. Lévy-Bruhl, L. Febvre va boshqa olimlar “mentalitet” tushunchasini ong va inson xulq-atvorining avtomatik shakli bilan bog‘liq bo‘lgan soha sifatida o‘rgandilar. Ular turli xalqlar mentaliteti tarixini mafkuralar va qadriyatlar tarixi bilan to‘ldirish kerak degan fikrni olg‘a surdilar. J. Le Goff lotincha “mens” so'zidan kelib chiqqan mentalis sifati XIV asrda o‘rta asr sxolastikasi tilida paydo bo‘lganini, ot mentaliteti esa uch yuz yildan keyin XVII asr ingliz ijtimoiy falsafasida paydo bo‘lib o‘rganila boshlanganini ta‘kidladi.1

Fransuz “Annallar” tarixiy maktabi asoschilari Mark Blok va Lyusen Fevr asarlarida “mentalitet” tushunchasini talqin qilib, mashhur etnolog Lyusen Levi-Bryulning ibtidoiy tafakkurga oid ishlaridan olishgan. Ular tarixni faqat siyosiy voqealar emas, balki insonlarning avtomatik ong shakllari, his-tuyg'ulari va dunyoqarashi ya‘ni mentaliteti prizmasidan o‘rganishni boshlab berishgan2

1 Ле Гофф, Ж. Общество, культура и ментальность средневековой Европы / Ж. Ле Гофф // История ментальностей, историческая антропология. - М. : РГГУ, 1996. - С. 40-44

2 Блок, М. Короли-чудотворцы: Очерк представлений о сверхъестественном характере королевской власти, распространенных преимущественно во Франции и в Англии / М. Блок ; пер. с фр. В. А. Мильчиной. — М. : Языки русской культуры, 1998. — 712 с

Keyinchalik mentalitet tushunchasi gumanitar fanlarning turli sohalarida keng qo‘llanila boshladi. Hozirgi ilmiy adabiyotlarda mentalitet ko‘pincha muayyan xalq yoki ijtimoiy guruhga xos bo‘lgan tafakkur uslubi, qadriyatlar tizimi va dunyoqarash modelini ifodalovchi kategoriya sifatida izohlanadi.

A. A. Yeromasovaning doktorlik dissertatsiyasida rus milliy mentaliteti madaniyat tomonidan shakllantirilgan chuqur, avtomatik psixologik-ijtimoiy tuzilma sifatida tavsiflanadi. Tadqiqot xulosalariga ko‘ra, olima mentalitetni dinamik tizim deb ta‘riflab, tarixiy va sotsiomadaniy o‘zgarishlarga qaramay, o‘zining asosiy sub‘ektiv arxetiplarini saqlab qoladi deb ta‘kidlaydi.3

Yuqoridagi olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib etnik mentalitet - bu o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan statik hodisa emas, balki til, madaniyat va ijtimoiy tajriba sintezida muttasil rivojlanib boruvchi dinamik tizimdir. Lingvistik dunyoqarash milliy mentalitetning eng xavfsiz va bosh qomusiy ombori bo‘lib xizmat qiladi, chunki millatning tafakkur tarzi avvalo uning tilida moddiylashadi deb ta‘kidlashimiz mumkin.

So’nggi paytlarda falsafa, madaniyatshunoslik, tilshunoslik, lingvokulturologiyada insonni to’liqroq o’rganish tendentsiyasi paydo bo’ldi: uning tabiati, tashqi ko’rinishi, ichki dunyosi, mentaliteti va boshqalar. Bundan tashqari, inson hodisasini tushunish uchun yo’l tabiiy fanlar orqali emas, balki tabiiy tillar orqali yotadi, degan ishonch o’sib bormoqda deb ta‘kidlaydi tadqiqotchi Maslova.4

Madaniyatshunoslik uchun milliy mentalitet va til munosabatlari muammosi fonida N.V. Ufimtseva va Yu.A Sorokin asarlari katta qiziqish uyg’otadi., bu yerda bir millat vakillari boshqa millat vakillarining qarashlari prizmasida namoyon bo’ladi.

Shuningdek duyo olimlari mentalitetni o‘z tadqiqotlarida tahlil qilib quyidagi xulosalarga kelganliklarini ko‘rish mumkin.

3 https://www.dissercat.com

4 Маслова В.А. Лингвокультурология: учебное пособие. 4-е изд. М., 2010.

- “ mentalitet - bu jamiyat madaniyatini aks ettiruvchi dunyoning ichki rasmining murakkab qiyofasi” ;5

- “mentalitet - bu bitta etnik guruhga mansub odamlarning oddiy ongiga xos bo’lgan dunyo modelidir”;6

Madaniyashunoslik uchun keng tushuntirish lug’atida ta’kidlanganidek, "mentalitet - bu dunyoqarash, shaxsning yoki jamoaviy ongning chuqur aqliy darajasida shakllangan, dunyoqarash, madaniyat, urf-odatlar, ijtimoiy institutlar, shaxsning atrof-muhitida shakllanadi va shaxsning yoki ijtimoiy guruh psixologik, xulq-atvor munosabatlari to’plamidir.. Mentalitet dunyoning tegishli madaniy manzarasini shakllantiradi va ko’p jihatdan odamlarning turmush tarzini, insoniy xulq-atvorini va odamlar o’rtasidagi munosabatlar shaklini belgilaydi .”

Tilshunoslik nuqtai nazaridan mentallik tushunchasi til va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Til inson tafakkurining muhim vositasi sifatida nafaqat kommunikatsiya funksiyasini bajaradi, balki insonning borliqni idrok etish jarayonini ham shakllantiradi. Shu sababli til birliklarida xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari hamda mental stereotiplari aks etadi. Til tizimida mavjud bo‘lgan semantik va konseptual tuzilmalar jamiyatning dunyo haqidagi tasavvurlari va tafakkur modelini ifodalaydi.

Til va tafakkur o‘rtasidagi munosabatni izohlashga qaratilgan nazariy qarashlar ichida lingvistik relativizm nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Ushbu nazariya vakillari til inson tafakkurini shakllantiruvchi muhim omillardan biri ekanligini ta’kidlaydilar. Tadqiqotchi Sapirning fikriga ko‘ra, har bir til o‘ziga xos semantik

5 Гуревич А. Я. Проблема ментальностей в современной историографии // Всеобщая история: дискуссии, новые подходы. М., 1989. С.75–89.

6 Митина О.С., Петренко В.Ф. Психосемантическое исследование политического менталитета // Общественные науки и современность. 1994. №6. С. 52–54.



tizimga ega bo‘lib, bu tizim orqali inson borliqni idrok etadi va talqin qiladi7. Demak, turli tillarda so‘zlashuvchi xalqlarning dunyoqarashi ham ma’lum darajada farq qiladi.

7 Sapir E. Language: An Introduction to the Study of Speech. – New York, 1921.